


01/2-02-05-5
21.01.2022-y.



**Samarqand viloyati statistika boshqarmasining korrupsiyaga qarshi
Idoraviy komissiyasining navbatdagi yig'ilishi**

BAYONI №1

2022- yil 21- yanvar

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi: Sh. Abdiyev Boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Qatnashdilar: A. Suyunov Boshqarma boshlig'ining o'rinbosari, Komissiya a'zolari, boshqarma bo'lim boshliqlari, shahar va tuman statistika bo'limlari boshliqlari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI

Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasining tegishli bandlarining ijrosini ta'minlash hamda Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturiga muvofiq, Davlat statistika hisobotlari shakllarini qabul qilish va qayta ishlash jarayonida hisobotlarni taqdim etuvchi korxonalar va tashkilotlarning mas'ul shaxslaridan ta'magirlik yo'li bilan pora olmasliklari hamda boshqa korrupsiyaviy holatlarga chek qo'yishni yig'ilish ishtirokchilariga tushuntirish to'g'risida.

(Sh.Abdiyev, A.Suyunov, Z.Davronov, F.Eshonkulov, M.Tagayeva, shahar va tuman statistika bo'limlari boshliqlari, Sh.Abdiyev)

Kun tartibidagi masala yuzasidan boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari Sh.Abdiyev so'zga chiqib, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasining tegishli bandlarining ijrosini ta'minlash hamda Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturiga muvofiq, Davlat statistika hisobotlari shakllarini qabul qilish va qayta ishlash jarayonida hisobotlarni taqdim etuvchi korxonalar va tashkilotlarning mas'ul shaxslaridan ta'magirlik yo'li bilan pora olmasliklari hamda boshqa korrupsiyaviy holatlarga chek qo'yish bo'yicha yig'ilish ishtirokchilarini qattiq ogohlantirib, mas'ullarga tegishli ko'rsatma va topshiriqlarni belgilab berdi.

Jumladan, Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali Davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilganligi ilk bor korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi

omillarni bartaraf qilish uchun mas'ul bo'lgan alohida organ - Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilganligini ma'lumot o'rnida ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, barcha xodimlar tomonidan Davlat statistika hisobotlarini qabul qilish va qayta ishlash jarayonida hisobot taqdim etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarni ovoro qilish, ularni asossiz Davlat statistika idoralariga taklif qilish, to'lovlar undirish, o'zaro munosabatlarda sansalorlik, ta'magirlik, poraxo'rlik va boshqa ko'rinishdagi korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'yimaslik bo'yicha mas'ullarni xushyorlikka chaqirdi.

Yig'ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari Sh.Abdiyevning korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan bergan axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Boshqarma hamda shahar va tuman statistika bo'limlari boshliqlari:

Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlarni barcha xodimlarga to'liq tanishtirib borilishini tashkil etib, ularning so'zsiz ijrosini ta'minlanishi yuzasidan shaxsiy nazorat olib borsinlar;

soha oldiga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarni bajarishda har qanday ko'rinishdagi mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish va korrupsiya holatlariga yo'l qo'yilishini oldini olish bo'yicha xodimlar o'rtasida muntazam ravishda tushuntirish ishlarini tashkil etsinlar;

barcha xodimlar tomonidan Davlat statistika hisobotlarini qabul qilish va qayta ishlash jarayonida hisobot taqdim etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarni ovoro qilish, ularni asossiz Davlat statistika idoralariga taklif qilish, asossiz to'lovlar undirish, o'zaro munosabatlarda sansalorlik, ta'magirlik, poraxo'rlik va boshqa ko'rinishdagi korrupsiyaviy holatlarga qat'iy chek qo'yilishini ta'minlasinlar va bu borada shaxsiy nazorat olib borsinlar.

4. Axborot xizmati (F.Eshonkulov), Dasturiy texnik-ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov):

boshqarma veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur yig'ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Komissiya kotibi



X.Xolmo'minov